

THE PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN INCULCATING NATIONAL AND UNIVERSAL QUALITIES

Ro'ziqulov Ravshan Raximovich

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Jurayev Raxmatillo Mustafayevich

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Isroilova Mohigul Bahodir qizi

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ABSTRACT

In education, the involvement of young people in physical education in the formation of universal qualities and their ability to behave in a moral manner serves to form morphological features.

Keywords: Education, national values, physical education, national ideology, pedagogy.

ANATATSIYA

Ta'lim tarbiya berishda yoshlarni umuminsoniy fazilantlarni shakllantirishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishi va ulardagi odob axloqi uzini tuta bilishi marfologik hususiyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim tarbiya milliy qadryatlar jismoniy tarbiya milliy mafkura pedagogika.

INTRODUCTION

Ta'lim-tarbiyani milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib olib borish orqali uni jahon andozalari darajasiga etkazish borasida mamlakatimiz ta'lim tizimida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi va bu jarayon jadal davom etmoqda. Ta'lim va tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan holda olib borish barkamol avlod tarbiyasida yaxshi samara berdi. Jismoniy tarbiya va sport sog'lom avlod tarbiyasining muhim omillaridan biridir.

Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3907 qarori. Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirildi. Jumladan, maktabgacha ta'limning zamonaviy tizimi, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy qilindi, zamonaviy oliy ta'lim muassasalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.

Shu bois, ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarni milliy va umuminsoniy fazilatlarni singdirish barkamol insonni shakllantirish lozim, bu borada milliy qadryatlarimizni urf odatlarimizni yoshlarimiz ongiga singdirishimiz zarur.

Milliy qadriyatlar-murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib u millatga millat madaniyati, tarix, urf-odatlarini, an'analari, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini iqtisodiy, ijtimoiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Insoning qaysi millatga mansub ekanligi xaqidagi tassavur faqat g'oyagina emas balki tuyg'u hamdir. Toki millatlar, milliy mafkuralar mavjud ekan, milliy qadriyatlar ham saqlanib qolaveradi. Millatni milliy qadriyatlaridan mahrum qilishga

urinish, tarix va insoniyat oldidagi eng katta xatodir. Milliy qadryatlarga millatning asrlar davomida yaratgan qadriyatlari kiradi, unda millatga xos belgilar, fazilatlar, tuyg'ular, o'z davrida yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar asosiy o'rinni egallaydi. Milliy va umuminsoniy fazilatlarini yoshlarga singdirish orqali mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, kuchli irodali, ishchan, g'oyaviy e'tiqodli, ma'naviyati yuksak, pok vijdonli shaxsni kamol toptirish joiz. Chunki "subyekt-subyekt" munosabatni amalda qaror toptirmasdan turib, tarbiyalanganlik darajasini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lmaymiz. Bu o'rinda jismoniy tarbiya va sport katta ahamiyat kasb etadi, jamiyatning barkamol shaxsni yetishtirishdek maqsadiga mos kelishi ayni muddaodir. Jismoniy tarbiya va sportning tarbiyaviy imkoniyatlari ulkandir. Emotsional, jismoniy va ijtimoiy ahamiyatli bo'lgan faoliyatning bu turlari yoshlarning ijobiy tajribalarini, xarakterning qimmatli hislatlarini, shaxs xususiyatlarini shakllantirish imkonini beradi. O'smirlar, o'spirinlar, qizlar. yosh yigitlar sport bilan shug'ullanar ekanlar, katta jismoniy va ruhiy yuklanishni boshdan kechiradilar. Bunday paytlarda yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengib o'tish irodani tarbiyalash uchun sharoit yaratadi. Pedagog-trener tomonidan maqsadga qaratilgan va to'g'ri boshqarilgan sport mashg'ulotlari jarayoni qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'rgatadi, mehnatsevarlik, qat'iyatlik, do'stona qo'llab-quvvatlashni namoyon etishni talab qiladi. Sport faoliyatida ishtirok etish yosh avlodda tashabbuskorlik, mustaqillik, tashkilotchilik malakalari, ijtimoiy faollik. jamoatchilikni tarbiyalashning yaxshi maktabi bo'lib hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport faollari ijtimoiy foydali mehnat jarayonida ishtirok etib, boshqarish san'atiga, yangi demokratik jamiyat quruvchisini axloq kodeksi talablariga javob beruvchi shaxs xususiyatlarini tarbiyalashga o'rganadilar. Sportchilarni g'oyaviy, axloqiy jihatdan tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport jamoalarining roli katta. Agar jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ishlar muntazam olib borilsa, unda jismoniy tarbiya va sport faoliyatida, ishtirok etish yoshlarni ijtimoiy ishlarga hamda ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishga ko'maklashadi. Sport bilan shug'ullanishni dars va mehnat bilan birga qo'shib olib borish qiyin. Shu bois uyushganlik, intizomlilikni tarbiyalash, qat'iy tartibga o'rgatish sportchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarda muhim o'rin tutadi. Jismoniy tarbiya va sport, insonni har xil ijtimoiy faoliyatga tayyorlashda shaxsni har tomonlama jismoniy rivojlantirishga yordam beradi. Sport - shug'ullanuvchilarning jismoniy, psixologik imkoniyatlarini takomillashtiradi, hayotiy zarur bo'lgan harakat ko'nikmalarini, hamda murakkab vaziyatlarda ularni ishonchligini oshiradi, avlodni mehnat, vatan mudofasiga va boshqa faoliyatlarga tayyorlaydi. Shuni takidlash kerakki sport insonni tarbiyalabgina qolmasdan o'zini anglashni va sog'lom fikrlashni qolaversa insoniylik fazilatlarini o'zida namoyon etishda katta ahamiyatga ega.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3907 qarori 15.08.2018
2. X. Ibragimov, SH. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). T., «Fan va texnologiya», 2008
3. Abdullayev. A. A., Xonkeldiyev. SH. X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati-Farg'ona 2001-yil.
4. Azizov. N. K. Belbog'li Turkiston kurashi. T.; O'qituvchi 1998, 104 bet.
5. Abdiyev. A. N. Dinamika sostayanniy borsov 16-17 ped na poslesorevnovatelinom etape v prosesse mnogolikovoy potgotovki: Avtoref. Diss. kand ped. nauk. T, 1994, 24 c.
6. Axmedov F. Q., Abdulaxatov A. R. sport-qadriyat-manaviyat va tarbiya vositasi (ilmiy-ommabop risola) Toshkent 2019